

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

bankchiligi, sukuk (islomiy obligatsiyalar), takaful (islomiy sug‘urta), mudaraba va musharaka kabi moliyaviy vositalar jadal rivojlandi. Musulmon dunyosi bilan cheklanmay, London, Dubay, Kuala-Lumpur, Istanbul va Toshkent kabi global moliya markazlarida islomiy moliyaviy mahsulotlar faol tatbiq etila boshlandi. Bu jarayon islom moliyasining global integratsiyalashuvini ta‘minladi. Bu davrda islom moliyasi nafaqat diniy qadriyatlar asosida rivojlanmadi, balki barqaror iqtisodiy boshqaruv modeli, ijtimoiy adolat va risklarni boshqarish mexanizmi sifatida ham e‘tirof etildi. Hozirgi kunga kelib, islom moliyasi faqat diniy moliyaviy tizim emas, balki global iqtisodiyotda barqarorlik, adolat va axloqiy boshqaruv tamoyillarini tatbiq etish modeli sifatida e‘tirof etilmoqda. Shu tariqa, XX asr o‘rtalaridan boshlab yuzaga kelgan qayta tiklanish jarayoni, hozirgi davrda islom moliyasining xalqaro miqyosdagi muvaffaqiyati va samaradorligini ta‘minladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Çizakça, Murat. “The Ottoman Government and Economic Life: Taxation, public Finance and Trade Controls”, in Suraiya Faroqhi and Kate Fleet (eds.), Cambridge History of Turkey, vol. 2, (Cambridge: Cambridge University Press, 2012).
2. Çizakça, Murat. “Long Term Causes of Decline of the Ottoman/Islamic Economies”, in Francesco Ammanati (ed.), Religion and Religious Institutions in the European Economy, 1000-1800 (Florence: Firenze University Press, 2012), pp. 361-377.
3. Udovitch, Abraham. Partnership and Profit in Medieval Islam, (Princeton: Princeton University Press, 1970).
4. Çizakça, Murat. Finance and Development in Islam: A Historical Perspective. INCEIF, Kuala Lumpur, 2012.
5. Chapra, M. Umer. *Islamic Economics: What It Is and How It Developed*. Islamic Research and Training Institute, Jeddah, 2000.
6. İnalçık, H. *The Ottoman Empire: The Classical Age*, 1994.
7. Yediyildiz, *Waqf Institutions and their Social Role*, 2008, s. 45–48.

AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI IQTISODIY TARTIBGA SOLISH YO‘NALISHLARI

Nabixo‘jayeva Dilafruz Sobir qizi
Sambhram university o‘qituvchisi
dilafruznabuxujayeva@gmail.com

Annotatsiya: Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning mehnat faoliyati, ularning boshqaruv tizimlaridagi mehnatini tashkil etishning o‘ziga xosligi, jumladan, ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ish bilan bandligini ta‘minlashda gender munosabatlari bo‘yicha muvofiqlashtirilgan ishlarni amalga oshirish, ayollar ish bilan bandligini

iqtisodiy tartibga solish yo‘nalishlari o‘rganilgan va amaliy tavsiyalar taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: boshqaruv, ayollarning ijtimoiy mehnati, boshqaruvda ishtirok, gender tengligi, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar xotin-qizlarning mavqeini oshirish, mehnat talablari.

Аннотация: В исследовании рассматриваются трудовая деятельность женщин в системе управления, особенности организации их труда в системах управления, включая обеспечение ухода за ними, проведение скоординированной работы по гендерным отношениям в сфере обеспечения занятости, направления экономического регулирования занятости женщин, а также предлагаются практические рекомендации.

Ключевые слова: управление, женский социальный труд, участие в управлении, гендерное равенство, социально-экономические механизмы расширения прав и возможностей женщин, требования к труду.

Abstract: The study examines the labor activity of women in the management system, the specifics of organizing their work in management systems, including providing them with care, implementing coordinated work on gender relations in ensuring employment, and the directions of economic regulation of women's employment, and offers practical recommendations.

Keywords: management, women's social labor, participation in management, gender equality, socio-economic mechanisms for women's empowerment, labor requirements.

Kirish

Hozirgi davrda jahon iqtisodiyotida innovatsion jarayonlarning jadal ravishda rivojlanishi, milliy tizimlarning xalqaro maydonda integratsiyalashuvining kuchayib borishi ayollar mehnati sohasiga bo‘lgan e‘tiborning tobora ortib borishiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Jahon bankining 2024 yilning mart oyida «Ayollar, biznes va qonun» reytingida 100 balldan 82,5 ball to‘plab, gender tengligini ta’minlash borasida eng katta yutuqlarga erishgan davlatlar qatoriga kirganligi qayd etildi. Ayollar huquqlari va gender tenglik sohasida eng katta natijalarga erishgan 5 ta mamlakatdan biri sifatida qayd etildi. Ochiq Gender ma’lumotlar indeksida eng yaxshi 20 ta davlat qatoridan joy oldi[1]. Shuningdek, so‘nggi ikki yil ichida O‘zbekiston Gender tenglik va boshqaruv indeksi (GEGI) bo‘yicha natijalarini 51 pog‘onaga yaxshilab, 103-o‘rindan 52-o‘ringa ko‘tarildi[2]

Respublikamizda ayollar ish bilan bandligini oshirish borasida barcha ijtimoiy va huquqiy sharoitlar yaratilganiga qaramay, bu sohadagi bugungi vaziyat zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sur‘atlari talablariga javob berishni talab qiladi. Bu vaziyatni yaxshilash uchun gender masalalari doirasidan chiqish zarur, chunki ularning aksari bozor transformatsiyasi sharoitida mehnat bozori shakllanishi va rivojlanishining umumiy muammolaridan kelib chiqadi, bu muammolar esa aholining, ayniqsa, ayollarning ish bilan bandligi darajasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Bu borada mamlakatimiz aholisining yarmini tashkil etayotgan ayollar uchun munosib ish o‘rinlari yaratish, ayollar ish bilan bandligi siyosatini ishlab chiqishda

bir qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra[3] ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun 2024 yilda 17 trillion so'm kredit ajratildi, shundan 81 trillion so'mlik mahsulot yaratib, 450 million dollarlik eksport amalga oshirildi.

“O‘zbekistonda o‘z-o‘zini band qiluvchilar” (self-employed) institutini joriy etish. 2019 yildan boshlab turli xizmat turlari — masalan, uyta'miri, bolaga qarash, repetitorlik — kabi faoliyatlar rasmiy maqomga keltirildi (yashirin iqtisoddan chiqarildi). 2 yil ichida bu toifaga kiruvchilardan odamlar soni sezilarli oshdi, ayollar ularning deyarli yarmidan ko'pini tashkil qilmoqda. Bu orqali ayollar rasmiy ijtimoiy ta'minot va pensiya huquqiga ega bo'lish imkoniyati oshdi. Ayollar tadbirkorligi o'ziga hos muhim dinamik kuch sifatida namoyon bo'lib, uzoq muddatli davrda biznes yuritish sohasini barqarorligini ta'minlashda uni rivojlantirish zaruriyati yuqori hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, dunyodagi yangi biznes tuzilmalarning 30 % dan ko'prog'i ayollar tomonidan yaratilgan. G'arbiy Yevropa davlatlarida[4] tadbirkorlikning chorak qismi, Yaponiyada 30 % ga yaqin, AQShda esa 40 % dan ortig'ini ayollar boshqaradi.

Mamlakatda iqtisodiy rivojlanishning tezlashishi va kambag'allikni qisqarishda ayollar tadbirkorligi katta ahamiyatga ega bo'lib, ayol tadbirkor erkak tadbirkorga nisbatan, o'z biznes faoliyatini boshlashdagi qiyinchiliklarga qaramay, biznes yuritishda erkaklarga nisbatan faolroq, bozorga tezroq kirib olish va o'z korxonalarining raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini oshirishda nisbatan kamroq vaqt sarflaydi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollarning boshqaruvdagi ishtiroki, boshqaruv blogi, haq to'lanmaydigan va norasmiy mehnat bilan bandlik, oila va farzandlar tarbiyasidagi o'rni, mehnat munosabatlarida gender tengligi, ularni ijtimoiy himoyalash, moddiy yordamlar hamda ishga joylashishdagi o'zaro bog'liqlik boshqaruvdagi o'ziga xoslik borasidagi tizimini tashkil qilish mazkur muammoni o'rganishning dolzarbligini yanada oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida dialektik va tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, sotsiologik so'rovnoma usullaridan foydalanildi. Ayollarning boshqaruvdagi ishtirokini oshirish imkoniyatlari, ularning oila, farzand tarbiyasini ijtimoiy mehnat bilan birgalikda qo'shib olib borishdagi mehnat munosabatlari o'rganilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Olimlarning e'tirof etishicha «Ayollar ish bilan bandligi erkaklarning bandligidan ikki asosiy jihatdan farq qiladi[5]. Birinchidan, ayollar odatda erkaklarga nisbatan kam daromad topadilar. Ikkinchidan, ko'plab jamiyatlarda ayollar pullik ishlarda erkaklarnikiga qaraganda kamroq mehnat qiladilar, lekin ko'pincha haq to'lanmagan ishlarda (oilaviy) band bo'ladilar. Ayollar mehnatining gender xususiyatlariga oid ijtimoiy tasavvurlar va mehnat taqsimotidagi o'ziga xoslikka hududiy omillar ham ta'sir ko'rsatadi».

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, respublikamiz, ayniqsa, uning qishloq hududlarida aholining ish bilan bandligini ta'minlashda amaliy echimini kutayotgan muammolar kam emas[6]. Binoabarin, qishloq aholisi tarkibida mehnat

resurslarining ulushi yuqoriligi, iqtisodiy faollik va ish bilan bandlik darajasining pastligi, tashkil etilgan ish joylarining asosiy qismi qisqa muddatli va mavsumiy xarakterda egaligi, ish bilan band aholining salmoqli qismi ish haqi past bo‘lgan sohalarida, norasmiy sektorda va barqaror bo‘lmagan ish joylarida bandligi hamda tashqi va ichki migratsiyalari yaxshi tashkil etilmaganligi kuzatiladi.

Bundan tashqari, BMTning «Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida»gi konvensiyasida[7] ham qishloq joylarida istiqomat qiluvchi ayollar duch keladigan quyidagi alohida muammolarga katta e‘tibor qaratilgan. Konvensiyaning 14 - moddasiga binoan mazkur konvensiyada ishtirokchi davlatlar «qishloq joylarida ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish yuzasidan quyidagi chora-tadbirlarni ko‘rishlari, chunonchi: ularning rasmiy va norasmiy ta‘lim olish va tayyorgarlikdan o‘tishning barcha turlariga ega bo‘lish huquqini ta‘minlashlari, yollanib ishlash orqali yoki mustaqil mehnat faoliyati orqali teng iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lishlari, shuningdek jamoa faoliyatining barcha turlarida ishtirok etishlarini ta‘minlashlari kerak».

Iqtisodchi olimlardan professor D.N.Raximovanning fikricha[8] “Mehnat bozorida iqtisodiy faol ayollarning bandlik darajasini hisoblash, asosiy ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni yanada to‘liqroq va tabaqalashgan holda tahlil etish, mehnat salohiyatidan foydalanishni tartibga solish imkoniyatini beradi”. Mazkur fikrni davom ettirgan professor J.X.Bobanazarovanning[9] ta‘kidlashicha esa “Mehnat bozori tartibga solish ayol ishchi kuchining ijtimoiy-ruhiy, iqtisodiy-moliyaviy, tashkiliy, demografik tavsiyalarini hisobga oluvchi faoliyat sohalariga yo‘naltirish bilan belgilanadi. Mazkur vazifalar oilaviy yumushlar, farzandlar tarbiyasi, kasbiy malaka darajasi, ijtimoiy infratuzilma sohalarining rivojlanishi va demografik o‘ziga xoslik natijasida kelib chiquvchi bir qator muammolar, ularning echimi bevosita ayollar mehnat bozorini tartibga solish ustuvorliklari, boshqaruv, tashkiliy, moddiy rag‘batlantirishlar har tomonlama islohotlarni amalga oshirishga tayanadi”

Yuqoridagi fikrlarga qo‘shilgan holda, bizning fikrimizcha ayollar ish bilan bandligi o‘ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi va bu murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo‘lib, o‘ziga xos tadqiqotni talab qiladi. Uni tadqiq qilishda ish bilan bandlikning umumiy qonuniyatlari, tamoyillarini o‘rganish, hisobga olish, ularga tayanish maqsadga muvofiqdir. Ayollar samarali ish bilan bandligi tadqiqoti mazkur tushunchaning asosiy vazifalarini ham aniqlashga imkon beradi:

- iqtisodiyotning hamda mehnat bozorining real talablaridan kelib chiqqan holda, ayollar ishchi kuchiga talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantirish;

- mehnatga doir munosabatlar yordamida ayol ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solish, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta‘minlash, ayollar orasida ishsizlik darajasini kamaytirish;

- mehnatga layoqatlilar orasida mehnat va tadbirkorlik faolligini to‘liq amalga oshirish uchun shar-sharoitlar yaratish, davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlar, yangiliklar to‘g‘risida targ‘ibot ishlarini kuchaytirish.

Respublikada oilaviy tadbirkorlik ayollarning ish bilan bandligini iqtisodiy tartibga solishda muhim imkoniyatlardan biri hisoblanadi. Qishloqda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ayollar tadbirkorligini iqtisodiy qo‘llab-

quvvatlash to‘g‘risida me‘yoriy- qonuniy hujjatlarni yanada takomillashtirish va ularni amaliyotga tatbiq etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ma‘lumki, innovatsion iqtisodiyotda salohiyatni faol turdagi takror ishlab chiqarish manbasiga aylantirish imkonini belgilaydigan omillardan biri mehnatga layoqatli xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlashning yangi zamonaviy shakllariga yo‘naltirish va tartibga solish alohida o‘rin egallaydi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlashga ta‘sir ko‘rsatuvchi mehnat talablari mohiyatiga qarab quyidagicha guruhlanadi (1- jadval).

1-jadval.

Xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlashga ta‘sir ko‘rsatuvchi mehnat talablari

Xotin-qizlar mehnatining ijtimoiy talablari	1.Oilaviy yumushlari va farzandlar tarbiyasi bilan birgalikda qo‘shib olib borish. 2.Oila a‘zolarining nisbatan kamroq qo‘llab-quvvatlanishi va ish vaqti chegaralanmasligi. 3.Bajariladigan kasblarning murakkabligi, innovatsiyalarning qo‘llanishi. 4.Ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni imtiyozli uy-joylar bilan ta‘minlash. 5.Kasbiy malaka darajasini oshirib borishga talab va yuqori intensivlik.
Mehnat resurslarining iqtisodiy talablari	1.Yangi ish joylarini yaratish va o‘z-o‘zini band qilishning ko‘payishi. 2.Xotin-qizlarga yangi ish o‘rinlarini tashkil etish uchun kafolatli mahalliy va xorijiy investitsiyalarni joriy qilish. 3.Kasbiy malaka va ma‘lumot darajasini olish uchun imkoniyatlarning yaratilganligi. 4.Mehnat bozori talablari bo‘yicha mutaxassislarning taqsimlanishi. 5.Ichki va tashqi mobillikning yuqori darajasi.
Mehnat salohiyatining tashkiliy talablari	1.Munosib turmush tarziga ta‘sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi. 2.Farzandlar tarbiyasi uchun maktabgacha tarbiya muassasalarining ko‘payishi. 3.Xotin-qizlar uchun tashkil qilinadigan ish o‘rinlari bo‘yicha qonuniy-me‘yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish. 4.Ish beruvchilar bilan yollanma ishlovchi xotin-qizlar o‘rtasida tuziladigan shartnomalarni takomillashtirish. 5.Mehnatni tartibga solish bo‘yicha innovatsion shartnomalar tizimini shakllantirish.
Demografik talablari	1.Xotin-qizlar orasida reproduktiv yoshdagilar va tug‘ilish darajasining yuqoriligi. 2.Oilaviy ahvol, mehnat qilishga xohishning yo‘qligi. 3.Xotin-qizlarning ijtimoiy holati va oilaviy majburiyatlar. 4.Karierani rivojlantirishda xotin-qizlarga yaratilgan imkoniyatlar. 5.Yangi shakldagi ish bilan bandlikning kengayishi va mehnatning intellektuallashtirishi.

Bu mehnat talablarini tashkiliy-ijtimoiy jihatdan boshqarish ayollar ish bilan bandligi bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirishning vositasi sifatida boshqaruvning barcha bosqichlarida ish bilan bandlikka ko‘maklashishning milliy, hududiy va mahalliy dasturlarni ishlab chiqish va uni amalga oshirish hisoblanadi. 017 dan 2022 yilgacha bolalar bog‘chalariga qabul qilingan farzandlar soni bosqichma-bosqich oshib, 27.7% dan 67.2% gacha etdi. Bu ayollarga bolalarni bolalar bog‘chasiga joylashtirish orqali ishga chiqishni osonlashtirish imkonini berdi. Mahallalarda tashkil etilgan ayollar bandligi markazlari: 1 loyiha doirasida bir ijtimoiy loyihada — har bir ishsiz ayol uchun — 3 million so‘mgacha grant ajratiladi. Bu markazlar bir loyihada 20 ayolga doimiy bandlik ta‘minlashga imkon beradi.

Xulosa va takliflar

Ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishda oilaviy biznesning samarali usullarini tashkil etishga erishish, uning xududiy tuzilmasini takomillashtirishda har bir tarmoqning biznes shakli sifatida mazkur faoliyatni takomillashtirishga yordam beruvchi innovatsion loyihalarni amaliyotga keng targ‘ib qilish maqsadga muvofiq.

Bizningcha, ayollar ish bilan bandligini iqtisodiy tartibga solishni boshqarish imkoniyatlari sifatida oilaviy biznesni innovatsion tadbirkorlik asosida tashkil etishga erishish, qishloq va mahallalarning ixtisoslashuvini (hunarmandchilik, tikuvchilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini etishtirish, ixcham issiqxonalar tashkil qilish va boshqalar) hisobga olgan holda, mini-klasterlar faoliyatini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu orqali esa turli xil iqtisodiy va ijtimoiy imtiyozlar, kafolatlangan ish joylarini taqdim etish yo‘li bilan mehnatga layoqatli yosh va ko‘p bolali ayollar faoliyatlarini moddiy rag‘batlantirish tizimini yanada takomillashtirish, oilaviy tadbirkorlik asosida qo‘shimcha o‘rinlari va daromad manbalarini oshirishga erishiladi. Ayollar bandligini oshirish uchun bolalarni parvarish qilish xizmatlarining sifatini va mavjudligini yaxshilash; ayniqsa 0–3 yoshdagi bolalar uchun bolalar bog‘chasi yoki uy parvarishchiligi xizmatlarini kengaytirish. Gender bo‘yicha ma‘lumotlar bazasini kengaytirish, statistikani yosh, hudud, kasb-hunar bo‘yicha tahlil qilish; gender indikatorlarini muntazam ravishda monitoring qilish tavsiya etdi. Texnologiyalar va raqamli platformalardan foydalanish — masofaviy va onlayn ish imkoniyatlarini kengaytirish (internetga kirish, raqamli savodxonlik) lozim. Mahalla tizimi orqali ayollarni qo‘llab-quvvatlash markazlarini kengaytirish va ularni moliyalashtirishni mustahkamlash kerak. Gender rollarini o‘zgartirish uchun ijtimoiy kampaniyalar va ta‘limni kuchayta bilish — oilada hamda jamiyatda axotin-qizlarning mehnatga chiqishi, madaniyat va stereotiplarga bog‘liq cheklovlarni kamaytirishni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Самедова Э.Р. Развитие женского предпринимательства в Азербайджане. Russian Journal of entrepreneurship #9, 2017 (May) 1491 стр.
2. Жеребкина О.А. Словарь гендерных терминов. М.: Информатсия XXI век, 2002. 85 с.

3. Бобаназарова Ж.Х ва муаллифлар жамоаси. Қишлоқ аҳолисини иш билан таъминлашнинг назарий ва амалий асослари. Монография. Т.: Инноватсион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи. 2018, -9-105 б.
4. Towards a better future for women and work: Voices of women and men. MOT Preventing Discrimination, Exploitation and Abuse of Women Migrant Workers: An Information Guide, 2017. DOI: <http://dx.doi.org/10.1017/S1365100500656>
5. Рахимова Д.Н. Управление процессами развития трудового потенциала Узбекистана в условиях осуществления радикальных рыночных реформ. Диссертация док. экон. наук. – Т.: 2000. -143 с
6. Бобаназарова Ж.Х. Қишлоқ жойларида аёллар иш билан бандлигини оширишнинг самарали ижтимоий-иқтисодий механизмлари. Фуқаролик жамияти. –Т.: 2019. №4 (60), - 30 б.
7. UzReport.news>society/uzbekiston-ochi-gender.
8. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-gender-tenglik-va-boshqaruv-indeksida-103-orindan-52-oringa-kotarildi_667545
9. <http://www.mehnat.uz>

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI: JIZZAX VILOYATI MISOLIDA

i.f.f.d., (PhD), dots. Saloxitdinov Sherzod Farxodovich
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Murotjonova Mubina Dilshod qizi
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
Iqtisodiyot yo‘nalishi 2-bosqich magistranti
murotjonovamubina1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi daromadlarini oshirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari Jizzax viloyati misolida tahlil qilingan. Tadqiqotning dolzarbligi, O‘zbekistonning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida raqamli transformatsiya jarayonlari aholi farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgani bilan belgilanadi. Maqolada raqamli iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlari — elektron savdo, masofaviy bandlik, raqamli moliyaviy xizmatlar va IT-sektorning kengayishi orqali daromadlarni shakllantirish mexanizmlari yoritilgan. Jizzax viloyati misolida raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida ishlab chiqarish samaradorligi oshgani, mehnat bozorining yangi shakllari vujudga kelgani, shuningdek, elektron xizmatlardan foydalanish darajasi ortgani qayd etiladi. Shu bilan birga, maqolada raqamli infratuzilmaning yetarli rivojlanmagani, raqamli savodxonlikning pastligi va raqamli tengsizlik kabi